

# FOYDALANUVCHI UCHUN QO'LLANMA "stat.uz"

## Bosh sahifa

Asosiy sahifaga kirgandan so'ng foydalanuvchi saytdagi mavjud bo'limlardan o''zini qiziqtirgan barcha ma'lumotlarga kirishi, o''zini qiziqtirgan savollarga javob olishi mumkin.



1-rasm. Asosiy sahifa

**Veb sayt asosiy sahifasidagi bo'limlar** - sahifaning yuqori qismida joylashgan bo'lib foydalanuvchi bo'lim sarlavhasiga tugmani bosish orqali ochishi va bo'limning barcha bo'linmalarini ko'rishi mumkin.

Foydalanuvchiga qulaylik yaratish uchun yuqori oynada tezkor kirish uchun quyidagi bo'limlar mavjud:

### 1. Qo'mita haqida

- 1.1. Umumiy ma'lumotlar
- 1.2. Tuzilma
- 1.3. Rahbariyat
- 1.4. Markaziy apparat
- 1.5. Huquqiy boshqarmalar
- 1.6. Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti
- 1.7. Statistika kengashi
- 1.8. Qo'mita hay'ati
- 1.9. Jamoatchilik kengashi
- 1.10. Xalqaro hamkorlik
- 1.11. Korrupsiyaga qarshi kurashish
- 1.12. Gender tenglik
- 1.13. Yoshlar siyosati
- 1.14. Bo'sh ish o'rnlari
- 1.15. Tenderlar

## 2. Me‘yoriy hujjatlar bo‘limi

Ushbu bo‘limda O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid bo‘lgan farmon, qaror va normativ huquqiy hujjatlaridan namunalar mavjud.



2-rasm. Me‘yoriy hujjatlar bo‘limi

## 3. Ochiq ma‘lumotlar bo‘limi




3-rasm.Ochiq ma‘lumotlar oynasi

## 4. Nashrlar bo‘limi

- 4.1 Nashrlar taqvimi
- 4.2 Press relizlar taqvimi
- 4.3 Press relizlar
- 4.4 Axborotnomalar
- 4.5 Risolalar
- 4.6 Statistik taqvimlar

## 5. Interaktiv xizmatlar bo‘limi

Ushbu bo‘limda Statistik hisobotlar topshiradigan tadbirkorlik subyektlariga ma‘lumot va yo‘riqnomalar mavjud



4-rasm.Interaktiv xizmatlar bo‘limi

## 6. Matbuot xizmati bo‘limi

Ushbu bo‘limda Statistikaga doir yangilik, e‘lonlar, hamkorlik, reja qilingan tadbirlar to‘g’risida ma‘lumotlarni ko‘rishingiz mumkin



5-rasm.Matbuot xizmati bo‘limi

## 7. Murojaatlar bo‘limi

- 7.1 Axborot olishga doir so‘rovlarni ko‘rib chiqish
- 7.2 Virtual qabulxonasi
- 7.3 Ishonch telefonlari
- 7.4 Murojaatlardagi statistikasi
- 7.5 Murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi
- 7.6 Qabul qilish jadvali
- 7.7 Sayyor qabul qilish jadvali
- 7.8 Savol berish
- 7.9 Davlat xizmati bo‘yicha murojaatlardagi statistikasi
- 7.10 Murojaat yo‘llash

## 8. Tadbirlar bo‘limi

- 8.1 Aholini ro‘yxatga olish
- 8.2 Qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yxatdan o‘tkazish
- 8.3 MICS

Shuningdek, asosiy sahifani o‘zida Statistikaga doir qo‘mita yangiliklari va e‘lonlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rish imkoniyati mavjud.



6-rasm. Yangiliklar va e‘lonlar

Asosiy sahifaning pastroq qismida “Axolini ro‘yxatga olish” va “Qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yxatdan o‘tkazish” sahifalariga o‘tish imkoniyati mavjud.



7-rasm.

## Asosiy sahifaning bu yerida Tadbirkorlar uchun ma'lumotlar mavjud

The screenshot shows a two-column layout. The left column is titled "Tadbirkorlar uchun ma'lumot" and lists three categories: "Shaxsiy kabinet" (with "Foydalanuvchining shaxsiy kabinet"), "Interaktiv xizmatlar" (with "Elektron hisobot" and "Korxona Pasporti"), and "Resurslar" (with "Qonunchilik asoslari", "Qayta baholash indekslari", "Tanlanma kuzatuvlar", and "Statistika kuzatuv shakllari"). The right column is titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" and lists various statistical reports and indices: "Qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish", "MICS", "Ma'naviyat va marifat", "Kun hikmati", "Nashrlar – statistika haqida", "Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot", "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar", "Iste'mol narxlar indeksi kalkulyatori", "Doimiy aholi soni", "Saytdagi so'rovnomalar", "Davlat statistika ishlari dasturi", "Foydalanuvchilar uchun qo'llanma", and "Tartatilishi cheklangan ma'lumotlar".

8-rasm.

Asosiy sahifani pastki oynasida Statistikaga oid ilmiy kitoblar ketma-ketligi mavjud, elektron do'konga o'tib ushbu kitoblarni online xarid qilish mumkin.

The screenshot shows a grid of five book covers under the heading "NASHRLAR". From left to right: "O'zbekistonning demografik yillik to'plami", "Yillik statistik to'plami", "O'zbekistonda qurilish", "Ayollar va erkaklar", and "O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat rivojlanishning asosly ko'rnikchilar". Below the grid are navigation arrows and buttons for "Batafsil" and "Elektron do'kon".

9-rasm.

Asosiy sahifada O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Elektron interaktiv xizmatlar portaliga o'tish imkoniyati mavjud

The screenshot shows the logo "mv\_stat.uz" and the text "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Elektron interaktiv xizmatlar portaliga o'tish". A button labeled "Portalga o'tish" is visible at the bottom.

10-rasm.

## Asosiy sahifaning davomida Respublika hududlaridagi yalpi ichki mahsulotlarning o'sish suratlarini ko'rish mumkin



11-rasm.

**Statistika qo'mitasiga doir yangiliklarni, qo'mitaning "Facebook", "Telegram", "Twitter", "Instagram" va "You Tube" ijtimoiy tarmoqlari orqali ham kuzatish imkoniyati mavjud**



12-rasm

## **WEB-SAYTDA FOYDALANILGAN ATAMALAR**

<b>Nº</b>	<b>Atamalar</b>	<b>Izoh</b>
1.	<b>Ro‘yxatga olingan</b>	Ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).
2.	<b>Faoliyat ko‘rsatayotgan</b>	Ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.
3.	<b>Kichik korxona va mikrofirmalar</b>	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24– sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275– son qarorining 1– ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.
4.	<b>Nominal hisoblangan ish haqi</b>	Ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.
5.	<b>Doimiy aholi sonini baholash</b>	Oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.
6.	<b>Doimiy aholi</b>	Ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.
7.	<b>Aholining migrations o‘sishi (farqi)</b>	Hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori
8.	<b>Transfertlar</b>	Uy xo‘jaliklariga boshqa uy xo‘jaliklaridan, davlat tomonidan, yuridik shaxslardan, chet eldan kelib tushadigan hamda kelgusida qaytarilishi shart bo‘lmagan tovarlar, xizmatlar va aktivlardir.
9.	<b>Aholining umumiylar daromadlari</b>	Doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda, uy xo‘jaligi yoki uning alohida a’zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.
10.	<b>Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri</b>	Axborot-ma’lumotnomasi tusidagi, vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning

<b>№</b>	<b>Atamalar</b>	<b>Izoh</b>
		davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.
<b>11.</b>	<b>Yangi tashkil etilgan</b>	Ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.
<b>12.</b>	<b>Yuridik shaxslarning faoliyotdarajasi</b>	Ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.
<b>13.</b>	<b>Kichik korxona va mikrofirmalar</b>	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24– sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275– son qarorining 1– ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.
<b>14.</b>	<b>Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar</b>	Norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.
<b>15.</b>	<b>1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti</b>	Hisobot yilda jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.
<b>16.</b>	<b>Aholi birlamchi daromadlari</b>	Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlardan tashkil topadi.
<b>17.</b>	<b>Mehnat faoliyatidan olingan daromad</b>	Yollanma ishchilarining va mustaqil ravishda band bo‘lgan aholining daromadidan tarkib topadi.
<b>18.</b>	<b>Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromad</b>	mustaqil ravishda tashkillashtirilgan va uy xo‘jaligi a’zolari jalb qilingan mehnat jarayoni natijasida olingan daromadlar.
<b>19.</b>	<b>Mol-mulkdan olingan daromadlar</b>	(mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo‘lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo‘jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.
<b>20.</b>	<b>Shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga</b>	Bozor uchun mo‘ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalilanayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati kiradi.
<b>21.</b>	<b>Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar</b>	Mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste’mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlar